New Edition

ISTALGAN TILNI 429% TEZROQ O'RGANISH

John Richards

Ushbu kitobdagi ma'lumotlar 4 yil umringizni tejab qoladi, va tilni 429% tezroq o'rganasiz

English Rocket

Jon Richards

ISTALGAN TILNI 429% TEZROQ O'RGANISH

Ushbu kitobdagi ma'lumotlar 4 yil umringizni tejab qoladi

Toshkent - 2022

Mundarija

Kirish 3
Nimadan boshlash kerak? 4
O'rganish uchun manbalar Grammatika 6
O'rganish uchun manbalar So'z yodlash 13
Online yoki Offline qaysi yaxshi? 16
Bo'sh vaqtdan foydalanish 17
Dangasalikdan halos bo'lish yo'li.....18
Yaxshi kursni yomonidan ajratish (online).....21
Xulosa 23

Kirish

Yaxshimisiz do'stim, ishlaringiz va o'qishlaringiz hammasi joyidami? Nima gaplar endi?

Kitobni o'qiyotgan ekansiz, sizda ham til o'rganish bilan bog'liq muammo bor va aynan shu muammoga yechim topish maqsadida ushbu qo'llanmani yozdik.

Ogohlantirish!

Bu kitob, institut yo maktabda domlangiz beradigan zerikarli, 124221578541276 betlik kitob emas. Bu kitobda siz bilan, xuddi do'stlardek, oddiy ko'cha tilida bilim o'rganamiz.

Endi esa, qulayroq joylashib oling, chunki siz bilan ushbu kitobga bo'lgan sayohatimiz boshlanmoqda.

"Kitob sizga va yaqinlaringizga bir umrga manfaatli bir vosita bo'lsa, Hayotingizga 1% bo'lsada o'zgartirish (ijobiy tomonga) kirita olsa, Demak biz maqsadimizga yetibmiz. Kitobning **vazifasi**, sizga tillarni 4x tezroq o'rganishingizga yordam berishdan iborat.

Doimgidek, kitobni "**Bismillahir Rohmanir Rohiym**" bilan boshlang. Alloh, manfaatli ilm bilan siylasin do'stim!

Nimadan boshlash kerak?

Til o'rganish bu - uy qurishdek bir gap. Asos qanchalik mustahkam bo'lsa qolgani shunga yarasha bo'ladi.

Xo'sh til o'rganishda Asos vazifasini nima o'tab beradi?

- Grammar (Grammatika)
- So'z boyligi (lig'at)

Hozirda keng tarqalayotgan "Sehrli" kurslar sizga Hech qanday Grammatika va So'z yodlashlarsiz "palonchi" oyda Xuddi ona tilidek gapirib ketasiz deydi. Xo'sh bu qanchalik haqiqatga yaqin, nima deb o'ylaysiz?

Shaxsan o'zim, bu kabi kurslarni sotib olgan ko'plab insonlarni taniyman. Ammo, birortasida aytarlik natija chiqqanini halicha eshitganim yo'q. Va chiqmasayam kerak.

Bu kabi kurslarga ishongan holda, til o'rganish bu juda katta RISK. Nimaga desangiz, siz ham pulingizni ham UMRingizni tikyapsiz. Natija bo'lmagan taqdirda pulku mayli, yo'qotgan vaqtingizni kim qaytaradi do'stim? Shu uchun ham tavsiya qilmayman.

Tavsiyam bo'ladigan ishni qiling. Ya'ni hammasini 0 dan boshlang, O'rganayotgan tilingizni Grammatikasi va so'zlarini o'rganishdan.

Aytgancha, har doim shunaqa boshlash shartmi desangiz, javob sal boshqacharoq. Agar siz, Angliyada turib Ingliz tilini o'rganishingiz kerak bo'lib qolsa, Atrofingiz to'la Ona tilisi Ingliz tili bo'lgan insonlar, hamma shu tilda so'zlashadi, umuman hamma yerdan shu tildagi muhit bilan qurshalgan bo'lasiz. Bu kabi holatlarda, gaplashishga harakat qilib lug'at kitoblar yordamida, yoki Inglizlarni suhbatlarini kuzatish orqali ham tillarni o'rganishingiz mumkin hisoblanadi.

Boshqa vaziyatlarda esa, 0dan boshlovchilar uchun eng maquli bu Grammatika + So'z yod olish.

Shunchaki, shu oddiy narsani qilgan holda qolganlardan bir necha barobar tezroq o'rganasiz. Hozirgacha 4 yil til o'rganib, bir joyda qotib qolganlarni ham, 1 yil o'qib keyingi yili sertifikat olganlarni ham ko'rdim. Farq nimada bilasizmi? Biri eng boshida Grammatika va Lug'at ustida ishlagan, ikkinchisi sehrli yo'llarni qidirgan+dangasa +intizomsiz. Kitob davomida, sizga halal berishi mumkin bo'lgan dangasalik va boshlab turib tashlab qo'yish kabi hislatlar va ularning yechimlari haqida ham gaplashamiz.

O'rganish uchun manbalar - Grammatika

Ushbu manbalarni 2 turga ajratishimiz mumkin.

- Bepul
- Pullik

Hop, Bepullariga nimalar kiradi, ya'ni qanday qilib Grammatikani bepulga o'rganish mumkin? Bizga gulugulu) (GOOGLE) hamda You Tube eng katta yordamchi bo'la oladi. Lekin bepul bo'lgani sabab, 92.6% holatlarda oxiriga yetmay tashlab qo'yishadi. Tashlab qo'ymaslik uchun nimalar qilish kerakligi haqida keyingi boblarda gaplashamiz.

Google va You Tube da shunchalik ko'p ma'lumotlar borki ularni ko'rib chiqishga butun umrimiz ham yetmaydi. Bizga kerakli bo'lgan tilni o'rganishda qanday foydalanamiz desak, javob oddiy.

Ko'pincha Tilni yaqinda o'rganib bo'lib, Sertifikat olgan o'quvchilar O'QITUVCHIlik faoliyatini boshlashni va pulga kurs sotishni istashadi. Lekin ularni hech kim tanimagani uchun, boshida BEPUL ga shunaqangi ko'p ma'lumotlarni ulashishadiki ba'zilarini pullik kurslarda ham topa olmaysiz. Aynan shunday o'qituvchilarga murojaat qilishimiz kerak bo'ladi. Lekin ularning hammasi ham yaxshi dars o'tadi va to'g'ri o'rgatadi deb ayta olmaymiz, shu

uchun Siz o'rganmoqchi bo'lgan tilni o'rganib bo'lgan biror tanishingizdan maslahat so'rang. Shuni darsini bir ko'ringchi to'g'ri o'tganmi deb.

https://t.me/btm_jg ga yozsangiz ham yaxshi maslahatlar olishingiz mumkin, bizning o'qituvchilarimizdan (albatta Bepul).

Keyingi usul, bu kitoblar (Self-study). Agar siz, yolg'iz ishlay oladigan, intizomli inson bo'lsangiz aynan shu yo'l, siz uchun eng yaxshilaridan biri. Do'konlarda, til o'rganish uchun kitoblar sochimizni tolasidanam ko'ra ko'proq hozirigi kunlarda. Shunchaki, biror yaxshi, professional ustozdan so'rang: "O'zim o'qib o'rganmoqchiman qaysi kitoblarni maslahat berasiz", - deb. Katta ehtimol bilan u sizga tavsiya beradi, chunki bunga hech qancha vaqt ketmaydi.

Iltimos!

Haligi, uyalishingiz borku. Birovdan nimadir so'rashdan, bo'libam notanish insondan. O'shani ichingizdan sug'urib olingda o'zingizga o'zingiz ayting, "U ham menga o'xshagan oddiy odam, yeb qo'ymaydi, shunchaki maslahat so'rashimiz har doim MUMKIN." Va borib, o'sha til 'rganish bo'yicha maslahat olmoqchi bo'lgan insoningizdan so'rang, UYALMANG, ayb yo gunoh qilsangizgina uyaling.

Pullik

- Online
- Offline

Online - ko'pchilik hali o'rganmagan yangicha tipdagi darslar. Odamlar aytishadi: "Online bo'maydiii, baribir offline boshqachadeee, yuzma yuz ko'rishib o'rganasan". Yo'q har doim ham bunaqa emas. Bir hikoyacha aytib beraman, yo'q demasangiz albatta.

IELTS ga tayyorlanish davomida, shahardagi 7ta "IELTS instructor"larga shogird bo'lib ko'rdim (1dars, 1 hafta, 1 oy vhk.) Nimaga erishdim bilasizmi? 4 oy umrimni isrofiga! Birortasi yaxshi o'rgata olmadi, keyin o'lganni ustiga tepgan, oilaviy finans bo'yicha muammolar paydo bo'ldi. Darslarga qatnashga ortiqcha pul yo'q, va aynan shu hayotimdagi eng foydali davrlardan biri bo'lib xizmat qildi. Ingliz tilini va umuman IELTS ni haqiqiy inglizlardan o'rganishni boshladim, albatta Google va You tube dagi Bepul materiallar orqali. 1 milion to'lab ham, offline o'zbek o'qituvchilarni kursidan o'sha Bepul ma'lumotlarni yarimini hatto o'rgana olmagandim. O'sha payt Ramazon oyi edi. Bilsangiz, Ramazon oyida qilingan ehson 1 ga 700 bo'lib qaytadi. O'shanda, cho'ntagimda qolgan oxirigi 10,000 so'm (o'sha payt $1) ni, ehson qildim. Keyin nima bo'ldi bilasizmi? Darslarini Bepul versiyasini ko'rib yurgan, Irlandiyalik

o'qituvchim menga $700 kursini sovg'a qilib yubordi) Eng qizig'i, men tanigan boshqa o'quvchilariga bunaqa sovg'ani bermagandi. (Umumiy 500,000 dan ortiq kuzatuvchisi bor uni, ma'lumot uchun).

Xullas, aytmoqchi bo'lganim 2 ta "insight", **Birinchisi:** Har doim ham offline o'qish tog'ri variant emas, va Online dars beruvchilardan olinadigan manfaat bugun, offlinedagilardan ko'ra ko'proq bo'lib boryapti. Shu sabab ham, onlineda o'qishni sizga judayam tavsiya qilgan bo'lardim. **Ikkinchisi:** 1 ga 700 qoidasi, rostanam ishlarkan)

Hop, mavzumizga qaytadigan bo'lsak. Online pullik kurslar. Yaxshi taraflari, istagan vaqtingizda darsni ko'rishingiz mumkin, Narxi arzonroq lekin, beradigan bilimi offline dan ko'p bo'lsa ko'p, ammo kam emas. Yana, o'qituvchi bilan kontakt ko'proq bo'ladi, uyatchang o'quvchilar uchun, ayniqsa yaxshi bu. Keyinchalik, biror mavzuni ko'rishingiz kerak bo'lib qoldi, yaxshi tushunmaganingiz uchun masalan. Keyinchalik yozib olingan, formatda uni ya'ni darsni ko'rib qaytadan o'rganib olishingiz mumkin. Offlineda shunaqa imkoniyat bormi?

Online darslardan, foydalaning, iltimos eskicha fikrlardan voz kecking. Va yana bitta iltimos, ingliz tilini o'rganing, balkim hozir rus yo nemis tilini o'rganayotgandirsiz, ammo internetda 60%dan ortiq ma'lumot shu tilda, dunyoqarashingiz 180 gradusga

o'zgaradi, va'da beraman. Dunyoqarashingiz kengroq bo'ldi degani, o'z o'zidan yashash sharoitingiz, topadigan daromadingiz ham oshadi degani. Do'stlarim, shu tilni o'rganing.

Online kurslarga ham, ma'lumotlarni sintez qilib, agar o'sha inson rostanam sizga o'rgata olishiga ishonch hosil qilsangiz keyin, Pul sarmoya qilishdan qo'rqmang. Bilimga tiking do'stim, kamida 8 baravar bo'lib qaytib keladi, bu sarmoya. Menda, men tanigan 1000 lab insonlarda shunday va undan ham yaxshiroq natijalar bo'ldi, sizda bizda bo'lganidanam ko'ra yaxshiroq natijalar bo'ladi. Nimaga bilasizmi, chunki biz shuncha umr yo'qotib o'rgangan narsalarimizni sizga, shu kabi qisqa kitobchalarda va Videokurslarda bervoryapmiz. Biz 4 yil sarflab erishgan bo'lsak, shu natijaga. Siz uni 1 oyda o'rganvolasiz. Bu degani sizda ortiqcha 3 yilu 11 oy vaqt bor va umringizning shu qismini siz yanayam ko'proq bilimlar olishga sarflay olasiz. Shu uchun ham tavsiyam, bilim uchun Pul qizg'onmang.

Offline - an'anaviy darslar. Ko'pchilik o'rganib qolgan, doimiy o'rganish usuli. Bu turda o'rganishni ham yomonlamayman. Zo'r o'qituvchilar ko'p, sizni aldab ketishlari ehtimoli kam. Atrofingizda siz bilan birga o'rganadigan do'stlar bor, Community bor degani siz muloqot qilasi, bu orqali networking kuchayadi, tanish bilish orttirasiz vhk.

Qisqa qilib aytadigan bo'lsak. Har bir narsani o'z + va -lari bor. Shunday ekan, tanlov o'z qo'lingizda, lekin tezroq o'rganmoqchi bo'lsangiz online darslarni sizga ko'proq tavsiya qilgan bo'lardim.

Lug'at - So'z boyligi

So'z boyligi - bu Har qanday tilni o'rganishimizda ikkinchi katta asos bo'lib hisoblanadi. So'z boyligi masalasida, biz uch narsaga alohida urg'u qaratishimiz kerak.

- So'zning ma'nosi va ishlatilishi
- Talaffuzi
- Yodlash usulimiz

So'zning ma'nosi va ishlatilishi - yangi so'zlarni o'rganar ekanmiz, ularning tarjimasini to'g'ri topishimiz va qayerda qay tarzda ishlatilishini, yaxshi bilib olishimiz kerak bo'ladi. Hozirda, judayam ko'plab lug'atlar chiqib ketgan, App lar, lug'at kitoblar vhk. Ularning, ichidagi hamma ma'lumotlarni ham to'g'ri deyish qiyin. Shu sababli, so'z yodlar ekansiz o'qituvchingizdan maslahat oling. Qaysi lug'at yaxshi, qaysida hamma so'zlar tarjimasi to'g'ri keltirilgan. Va agar, imkoni bo'lsa o'sha kitobda bo'lmagan taqdirda ham, o'zingiz Google dan qidirib, o'sha so'zning gaplarda qanday qo'llanilayotganini o'rganib chiqing.

Misol, o'zbek tilida ham bitta so'zning bir necha ma'nolari bor va ularni noto'g'ri o'rinda qo'llab qo'yadigan bo'lsak, gapimiz tushunarsiz va noto'g'ri chiqib qoladi. Xuddi shu kabi, istalgan tilda bitta so'zni bir necha ma'nolari bo'ladi. Ularni o'rganib, qayerda qanday qo'llasak, qanday mano chiqishini

martbilib olishimiz muhim hisoblanadi.

Talaffuzi - Yangi so'z yodlayotganda, uni to'g'ri talaffuz qilayotganingizga ham alohida e'tibor bering. Chunki birgina noto'g'ri talaffuz deb, butun boshli gapingizni mazmuni o'zgarib ketishi mumkin. Keyin, o'zbekchalashtirib yubormang iltimos. Ya'ni har xil talaffuz qilishadi o'quvchiar, hozir aytayotganim, bu Chet tilidagi so'zni O'zbekchaga o'xshatib talaffuz qilib yuradi. Uni nima deyayotgani tushunib olishingiz uchun 99 marta "A" "Nima? deyish kerak bo'ladi.

To'g'ri talaffuz qilish uchun ikkita usulni tavsiya qilaman. Birinchis Google Translate, Yangi yodlayotgan so'ziingizni Google trannslate'ga yozsangiz o'qib beradi, xuddi shunaqa talaffuz qiladigan bo'lsangiz, bo'ldi muammo hal.

Keyingi usul bu, O'rganayotgan tilingizda kuylangan biror qo'shiq eshiting, va e'tibor bering o'sha qo'shiqda siz o'rganayotgan so'z ham ishlatilgan bo'lsin. Keyin, yaxshilab eshiting u qo'shiqni lyrics'i bilan, va yodlayotgan so'zingizni qo'shiqchi qnday talaffuz qilayotganiga e'tibor bering (Passive usul).

Yodlash usuli - agarda siz hali ham Qayta-qayta takrorlash orqali so'zlarni yodlayotgan bo'lsangiz zzamondan aaancha ortda qolibsiz + juda ham sa-

marasiz usuldan foydalanayotgan ekansiz. Nega, deysizmi?

Hech e'tibor qilganmisiz, aynan shu qayta-qayta takrorlash usuli orqali yod olingan so'zlarni 1-2 kun o'tib deyarli eslay olmaysiz. Ko'rib qolsangiz shu so'zni yo kerak bo'lib qolsa ham. "Tilimni uchida turibdida, nima edi" deb yurasiz. Bu bitta sizda emas bu usulni qo'llovchi deyarli hammada shu muammo. Aynan shu kabi muammoga duch kelmasligingiz uchun esa, John Richards (o'zim) tomonidan tuzilgan usullar jamlanmasini tavsiya qilamiz. (Rostanam samarli bo'lgani uchun tavsiya qilyapmiz).

Usullar haqida bilish va kursni olish uchun: admin ga murojaat qiling (Ssilka ustiga bosing).

Online yoki offline qaysi biri yaxshi?

Bu haqida yuqorida alohida to'xtalib o'tdik va xulosa qilib aytishim mumkinki, ikkalasiniyam o'ziga yarasha + va -lari bor. Agarda orangizda kimdir, "Men online o'qiy olmayman" deydigan bo'lsa, javobimiz "Iltimos bahona qilmang". Chunki, hozir XXI asr, Yevropa va Amerika taraflarda hattoki Meta olamda, uy va Ofislar xarid qilishyapti, Meta olamda darslar o'tilyapti. Biz esa shunchaki, online o'qiy olmayman deb yuraveradigana bo'lsak, yana 120 yil ortda qolib ketaveramiz.

Maslahatim, agar Online ga qiynalaman, deb o'ylasangiz, birinchi bo'lib miyangizdagi shu blokdan halos bo'ling. Keyingiz maslahat, birdaniga Offline kurslardan voz kechmangda, parallel olib borishni boshlang (Moliyaviy muammo deman iltimos, Birinchidan Online kurslar arzonroq va 4-5 kun shohona "obed" qilmay tursangiz shu pulli kurslarni bemalol olishingiz mumkin bo'ladi).

Keyin, do'stlarim tilni o'rganib bo'lgach O'zbekcha kontentlardan uzoqroq bo'lishga harakat qiling. Bu gapim bilan, O'zbek tilida umuman yaxshi kontent yo'q demoqchi emasman, shunchaki ular juda juda va juda ham kam. Borlari ham, shunchaki chetdagi biror kishini kursini tarjima qilingani bo'ladi. Shu sabab sekin, sekin ma'lumotlarni chet tilida izlashga odatlaning. Online ga ko'chish davri keldi, do'stim!

Bo'sh vaqtdan foydalanish

Darslarni qilib bo'ldingiz, o'qishingiz kerak bo'lganini o'qib bo'ldingiz, umuman bugungi rejalaringizni barchasini qilib bo'ldingiz. Endi, bo'shsiz. Hop, bu vaqtni qanday unumli qilish mumkin.
.Nuqul, nimadir o'rganaversangiz ham miyangizni charchatib yuborasiz, albatta. Shu uchun, sal miya qabul qilishi yengilroq Videolar yoki qo'shiqlar tinglash ko'pchilik uchun, bo'sh vaqtni o'tkazish uchun eng maroqli mashg'ulotlardan biri.

Siz birr, yangi til o'rganayotgan ekansiz. O'sha til bilan yashashni boshlang. Eshitadigan qo'shiqlaringiz, ko'radigan Videolaringiz Kinolaringiz va umuman muhitingizni, o'sha o'rganayotgan tilingiz bilan o'rab olishga harakat qiling. O'sha til bilan yashang qisqa qilib aytganda.

Dangasalikdan halos bo'lish yo'li

Bu hammamizni oramizda eng keng tarqalgan muammolardan biri albatta. Misol uchun siz, biror ish qilmoqchisiz. Masalan, so'z yodlmoqchisiz. Ushbu holatda endi so'z yodlashni boshlaganignigzda 2ta yo 3ta yodlaysiz va sizga zerikarli tuyulishni boshlaydi, yo oyingiz biror ish aytib qoladi, yo do'stingiz qo'ng'iroq qilib qoladi va hokazo.

Xullas, sizni chalg'itadigan nimadir ish bo'ladi va siz chalg'iysiz, va yana qayta o'sha ishni boshlashga erinib qolasiz, dangasalik qilasiz. Xo'sh uni qanday yengish mumkin?

POMODORO

Ushbu usul dangasa odamlarga va shaxsan o'zimga ham ancha yordam bergan usullardan biri. Chunki inson biror og'irroq aqliy mehnat qilarkan, chalg'ib etishi oson kechadi. Ayni shu holatdan qochish maqsadida ham shu usuldan foydlansishimiz kerak bo'ladi.

Usul quyidagicha qo'llaniladi.

Dastlab oldimizga maqsad qo'yib olishimiz kerak, biz nima qilmoqchimiz, qancha qilmoqchimiz va necha soat yo daqiqa qilmoqchimiz. Belgilab olganimizdan keyin usulga moslab bo'lamiz.

Pomodoro usuli - 25 daqiqa mehnat, 5 daqiqa dam. 25 daqiqa mehnat 5 daqiqa dam ... Har 5ta yoki 6ta Pomodoro qilganimizdan so'ng, 1-2 soat kamida dam olishimiz kerak.

Masalan biz, 3 soatda 120 ta so'z yodlashimiz kerak. Uni soatma-soat bo'lib chiqamiz, shunda soatiga 40 tadan so'z yodlashimiz kelib chiqyapti. 3 soat degani bu 6ta Pomodoro. Shunda jadval qilib chiqsak, quyidagi ko'rinishda bo'lar ekan:

1-soat: 25 minut - 20 ta so'z - 5 daqiqa dam - 25 minut 20 ta so'z - yana 5 daqiqa dam.

2-soat: 25 minut - 20 ta so'z - 5 daqiqa dam - 25 minut 20 ta so'z - yana 5 daqiqa dam.

3-soat: 25 minut - 20 ta so'z - 5 daqiqa dam - 25 minut 20 ta so'z - yana 5 daqiqa dam.

Tugatgach 1-2 soat dam olamiz va yana 2ta pomodoro qilgan holda 60 ta 60 tadan qilib, yodlagan 120 ta so'zimizni takrorlab chiqamiz. (Yodlamoqchi bo'lgan so'zlaringizni kartochkaga yozib chiqishni unutmang). Keyin yodlagan so'zlarimizni, 2-yodlangan so'zlar qutisiga, muammo tug'dirgan va eslab qola olmagan so'zlarimizni 3-eslab qolishda muammoga duch kelgan so'zlarimiz qutisiga solib qo'yamiz va ushbu usulni takrorlaymiz, har kuni.

Aynan shu usul yordamida, minglab insonlar shu jumladan o'zim ham dangasalikni yengishga va ko'plab so'zlarni yodlashga muvofiq bo'lganmiz. Eng muhimi esa, yotib olmang, chunki yotishingiz 88% holatlarda uxlab qolish bilan yakun topadi va uxlab qolsangiz maqsadlarga tushingizda erishasiz.

Keyin, yana bitta narsa. Agar miyangizga qilmoqchi bo'lgan ishingiz qanchalik muhim ekanini tushuntirib bera olmasangiz, u ya'ni miya, yetarli energiyani ishlab chiqarmaydi va aynan shuning natijasida dangasalik kelib chiqadi. Shu sababli ham, ilk qadamda o'zingizga yaxshilab singdirib oling, oldingizga qo'ygan maqsadingiz qanchalik muhimligini shunda, dangasalik qilish ehtimolingiz kamida 67% ga kamayadi.

Hoziroq sinab ko'ring, Chunki Nazariya bir o'zi bu hech narsa, lekin uni amalda qo'llasangiz siz ushbu Nazariyadagi mag'izni topgan bo'lasiz. Omad!

Yaxshi kursni yomonidan ajratish (online)

Buni yo'li ko'p, ammo...

Sizga TOP 3ta yo'lini aytaman (o'zim ham aynan shunday qilaman).

Birinchi bo'lib, online kurs sotib olayotganingizda U inson taqdim qilgan, BEPUL materiallar bilan tanishib chiqing. Bu sotib olayotgan kursingiz qanchalik yaxshi yo yomonligi haqidagi dastlabki, eng muhim ma'lumotlarni beradi. Chunki bepul darsda hech nima tushuntira olmagan insondan, pulli kursida nimadir kutish bu albatta qiyin masala. Shu uchun, You tube kanali bormi yoki telegram, bir o'zidan so'rang va Bepul kontentlari bilan qisqacha bo'lsa ham tanishib chiqing. Imkoni bo'lsa, probniy dars ham so'rang albatta.

Ikkinchi, O'rganmoqchi bo'lgan kursingizdagi ma'lumotlarni yaxshi biladi deb hisoblaydigan biror insondan so'rash. Chunki u inson, sizdan oldin qatnashgan bo'lishi ham mumkin, yokida qatnashmagan taqdirda ham, u yaxshi biladi kursdagi ma'lumotlardan foydalanib biror nimaga erishish mumkin, yoki yo'q. Agar unaqa inson bo'lmasa, tanishlaringiz orasida, shunchaki https://t.me/btm_jg ga yozing va sizga Bepul konsultatsiya beramiz.

Uchinchi, avvalgi mijozlarining fikri bilan tanishib chiqing, imkoni bo'lsa birortasi bilan gaplashib ham ko'ring. Natijalari, kurs qanday ko'rinishda, qanday tartibda olib borilgan va hokazo hammasi haqida batafsil so'rab, bilib oling. Imkoni bo'lsa, faqatgina bitta mijozi bilan gaplashib chegaralanmang, kamida 2-3 tasi bilan gaplashib ko'ring. Chunki qayerdan bilasiz, balki o'zi boshqa akkauntdan yoziib o'tirgandir sizga.

Bu 3 usuldan birini qo'llab, kurs yaxshiligiga ishonch hosil qilgandan so'ng esa, iltimos bilimdan pulingizni ayamang. Chunki o'sha pullarni, obed yo biror yig'in uchun, yeb-ichishga ham sarflab yuborasiz. U yeb-ichganingiz bir necha soatda tanangizni "tark etadi" bilim esa, bir umr sizga naf keltiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, 3ta maslahat bera olaman do'stim. Birinchisi kitobni o'qib chiqdingizmi, endi amalda ham qo'llang, hayotingizga tadbiq qilmasangiz Nazariya bu 1 tiynga qimmat so'zlar uyumi xolos.

Ikkinchisi, Online ta'limga ko'ching (bosqichma-bosqich) chunki online da juda-juda ko'p eng yaxshi informatsiyalar, bir kunlik obed pulingiz narxida turibdi. Foydalanmasangiz uvol bo'ladi xolos.

Uchinchi maslahatim esa, bilmadim siz necha yoshdasiz ammo Ingliz tilini o'rganing. Bu sizga butun dunyo eshiklarini lang etib ochib beradigan sehrli kalit vazifasini o'tab bera oladi.

John Richards

ISTALGAN TILNI 129% TEZROQ O'RGANISH

Writer: John Richards
Composer: John Richards
Design team: Grento Marketing

Gafurovich Team

Kitobdagi ma'lumotlar orqali 4 yil umringizni tejab qolasiz